



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776(E) | SJIF 2023: 6.907

Otabek Qudratovich.  
Musaev

Navoiy davlat pedagogika instituti  
Dotsent., PhD  
*Email: otabek.musayev75@email.ru*

## TA'LIM DOKTRINASI ELEMENTLARI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada biz ta'lism doktrinasi elementlарining ayrimlariga to'xtalib o'tganmiz. Hamda maqolada bu elementlarning ta'limgning rivojlanishdagi o'rinnari haqida mulohazalar bildirilgan. Ta'lim va kadr, ta'lim va davlat, ta'lim va salomatlik, ta'lim texnologiyalari haqida to'xtalib o'tganmiz.

**Kalit so'zlar:** Ta'limgni boshqarish davlat va jamiyat, ta'lim va salomatlik, ta'lim shakllari va bosqichi.

**Аннотация.** В данной статье мы затронули некоторые элементы доктрины образования. В статье также комментируется роль этих элементов в развитии образования: образование и кадры, образование и государство, образование и здравоохранение, образовательные технологии.

**Ключевые слова:** Управление образованием, государство и общество, образование и здравоохранение, формы и этапы образования.

**Abstract.** In this article, we have touched on some elements of the doctrine of education. The article also comments on the role of these elements in the development



of education. We have discussed education and personnel, education and the state, education and health, and educational technologies.

**Key words:** Education management, state and society, education and health, forms and stage of education.

**Kirish:** Mamlakatimizda oliy ta‘lim muassasalarining o‘quv-tarbiya jarayoni moddiy-texnika va axborot bazasini mustahkamlash, yuqori sifatli o‘quv adabiyotlari va ilg‘or pedagogik texnologiyalar bilan ta‘minlash, jahonning yetakchi ilmiy-ta‘lim muassasalari bilan hamkorlik qilish borasida olib borilayotgan islohootlar pedagog kadrlarning zamonaviy kasbiy bilimlari va pedagogik mahoratlarini doimiy oshirish zaruratinini kuchaytirmoqda.

**Asosiy qism (Tahlil va natijalar):** O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish chora-tadbirlarida “mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda oliy ta‘lim muassasalarining ishtiroki hamda tashabbuskorligini oshirish, professor-o‘qituvchilarning bilimi va pedagogik mahorati monitoringini yuritish” kabi vazifalar belgilangan. Bu borada o‘qituvchilarda pedagogik qobiliyatlarning rivojlanish darajasining pedagogik-psixologik xususiyatlari va omillarini aniqlashtirish, baholash mezonlari va mexanizmlarini takomillashtirish, kompetentsiyaviy yondashuv asosida pedagogik qobiliyatlar kompleksining didaktik tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. 2019-yil 27-avgustdagi “Oliy ta‘lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarni malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son Farmonlari, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son, 2017- yil 20-apreldagi “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-son qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentabrdagi “Oliy ta‘lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-son qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjalarda



belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu maqolamiz muayyan darajada xizmat qiladi.

1. Ta‘limni boshqarish davlat va jamiyatning ta‘limning dinamik rivojlanishi, ko‘p qirraliligi, yuqori sifati va jamiyat manfaatlarini hisobga olishi yo‘lidagi hamkorligini ta‘minlashga chaqirilgan. O‘zbek ta‘limini boshqarish uning tizimini dunyo ta‘lim sohasi qonuniyatlari va tendentsiyalari bilan muvofiqlashtirish, vatanimizning eng yaxshi an'analarini rivojlantirish jarayoni sifatida qaraladi.

2. Ta‘limni boshqarishning asosiy vazifalariga:

- ta‘lim maqsadi va vazifalarini hal qilishga erishishni tashkil etish;
- ta‘limda davlat va jamiyat boshqaruving turli darajalari o‘rtasida vazifa, vakolat va javobgarlikni taqsimlash va muvofiqlashtirish;
- hammuassislikn amaliyotini mustahkamlash va ta‘lim muassasalarining avtonomiyasini kengaytirish;
- ta‘lim muassasalarining akademik va moliyaviy mustaqilligini ta‘minlashning huquqiy-me'yoriy va iqtisodiy mexanizmlarini joriy etish;
- ta‘lim organlarining ma'muriy-farmoyish vazifalarini minimallashtirish;
- ta‘limni boshqarishning jamoatchilik tarkibiy qismlari va shakllarini rivojlantirish kiradi.

### **Ta‘lim kadrlari:**

1. Pedagog ta‘lim va tarbiya jarayonida asosiy figura sanaladi. u O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan huquq va majburiyatlarga egadir. Har bir o‘qituvchi ta‘lim sohasining xodimlari xulqi va faoliyatining kasbiy-axloqiy normalarini belgilaydigan majburiyatlarni o‘z zimmasiga oladi.

2. Ta‘lim tizimi mamlakatning pedagogik salohiyatidan samarali foydalанишими та‘minlashga chaqirilgan. Ta‘lim kadrlari faoliyatini optimallashtirish yo‘lida:

- o‘qitishning konstitutsion huquqini realizatsiyalash;
- ta‘lim kadrlarining kasbiy o‘sishi, ijtimoiy maqomi va yashash darajasini oshirish uchun sharoitlar;



- pedagogik xodimlarning ilmiy asoslangan o‘quv yuklamalari normativlarini, ta‘lim tizimi optimal tashkiliy strukturasini ishlab chiqish va joriy qilish;
- pedagogik xodimlarni ob'ektiv attestatsiyalash mexanizmining faoliyati, pedagogik kadrlar ish haqidagi mintaqaviy kontrastlilikni bartaraf qilish;
- mehnatning boshqa sohalariga qaraganda ta‘limning yuqori raqobatbardoshligi va yoshlarning pedagogik faoliyatga motivatsiyasi;
- pedagoglar va pedagogik tayyorgarlik olishni istagan shaxslarning kasbiyta‘limga ehtiyojlarini qondirish bo‘yicha faoliyatning servis tamoyili asosida qo‘srimcha pedagogik ta‘lim tizimini joriy qilish;
- ta‘lim kadrlarining yuqori mobilligi va pedagogik mehnatga adekvat haq to‘lash orqali ularning faoliyat samaradorligini oshirish ta'minlanadi.

### **Ta‘lim va davlat:**

1. Ta‘lim respublika va mahalliy qonun chiqaruvchi va ijro organlarining ta‘lim muassasalari, pedagogik hamjamiyat, ta‘lim oluvchilar va ularning oilalari, potentsial ish beruvchilar va jamoat tashkilotlari bilan sheriklik o‘zaro hamkorligining ko‘p qirrali maydoni sanaladi. Davlat – bosh islohotchi va o‘zgarishlar kafolati.
2. O‘zbekistonda ta‘lim muassasalari ularning davlat byudjet mablag‘lariga munosabatiga ko‘ra farqlanadi (byudjet va byudjetdan tashqari). O‘zbekiston hududidagi barcha ta‘lim muassasalari o‘z faoliyatini davlat qonunlari asosida amalga oshiradi. Respublikada litsenziyalangan ta‘lim muassasalarining diplom va attestatlari umumdavlat namunasidagi hujjat sanaladi.
3. Xorijiy (nodavlat) ta‘lim muassasalarining O‘zbekiston hududidagi maqomi davlatlararo, hukumatlararo shartnoma va bitimlar bilan belgilanadi.
4. Davlatning ta‘lim sohasidagi maqsadi vatanimiz va dunyo ta‘lim makoni doirasida shaxs va jamiyat manfaatlariga qaratilgan maqsadli tarbiya va ta‘lim jarayonini ta‘minlash uchun sharoitlar yaratish sanaladi.
5. Davlatning ta‘limdagi asosiy vazifalari quyidagilar sanaladi:
  - mamlakat rivojlanishi va uning kelajagini ta‘minlashda ta‘limning ustivor rolini amalga oshirish;



- inson va O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining ta‘lim olishga konstitutsion huquqini realizatsiyalash va uning adekvat huquqiy bazasini shakllantirish;
  - ta‘lim sohasining rivojlanishi uchun ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni yaratish;
  - ta‘lim sohasi rivojlanish jarayonining axborot va ilmiy kuzatuvini tashkil qilish;
  - davlat siyosati ochiq va oshkoraligni, ta‘limda teng boshlang‘ich imkoniyatlarni ta‘minlash;
  - ta‘lim va tarbiya masalalari bo‘yicha davlat qarorlarini qabul qilish, ta‘limni boshqarish va nazoratga pedagogik jamoatchilikni jalb qilishning demokratik mexanizmini yaratish;
  - o‘quvchilar va ta‘lim sohasi xodimlarining ijtimoiy himoyalanganligini ta‘minlash;
  - o‘quvchilar va ularning oilalari tomonidan ta‘lim muassasalari va ta‘lim olish shakllarinitanlash erkinligini realizatsiyalash;
  - O‘zbekiston xalqlari milliy madaniyatini saqlab qolish shakli sifatida har bir etnosning yosh avlodni milliy mакtablarda o‘qitishini kafolatlash;
  - ta‘lim muassasalarini, ularga ta‘lim faoliyatini olib borish huquqini berish bilan,
- litsenziyalash tizimini tashkil qilish.

6. Ta‘lim sohasida davlat siyosati maqsadiga erishish va vazifalarini hal qilish O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi hamda Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi zimmasiga yuklatiladi.

### **Ta‘lim texnologiyalari:**

1. Ta‘lim texnologiyalari insonning faol hayoti butun davrlarini qamrab oladigan ko‘p qirrali va uzluksiz ta‘limga o‘tishni, uning optimal holatiga erishish sharti sifatida, ta‘minlashga chaqirilgan. Yuqori ta‘lim texnologiyalari ta‘lim oluvchilar bilan ishlashda insonparvarlik, shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik usullarga, o‘quvchilarning individual tabiiy xususiyatlarini ilmiy asoslangan holda hisobga olishga o‘tishni ta‘minlashga chaqirilgan.



2. Ta‘lim jarayonining individuallashtirilgani, masofaliligi, variativligi, ta‘lim oluvchilarning akademik mobilligi ilg‘or ta‘lim texnologiyalarining bazisi sifatida qaraladi.

Ularni realizatsiyalash uchun quyidagi choralar amalga oshiriladi:

- ta‘lim shakllari va bosqichlari, ularning dastur va rejalarini invariantligi va uzviyligini ta‘minlaydigan ilmiy asoslar ishlab chiqilmoqda;
- o‘quv adabiyotlari va kompyuter (jumladan, mul`timedia) ma'lumot bazalari bozori ilmiy asoslanmoqda, uni monopoliyalashtirish imkoniyati bartaraf qilinmoqda;
- qobiliyat darajasi turlicha bo‘lgan, turli yoshdagi va turlicha ehtiyojli bolalarni o‘qitish bo‘yicha variativ metodikalar yaratilmoqda;
- masofaviy uzlusiz ta‘lim dasturi ishlab chiqilmoqda va realizatsiyalanmoqda;
- ta‘limning interfaol metodlari va amaliy yo‘nalganligiga o‘quvchilarni fundamental nazariy tayyorlash bilan biriktirgan holda o‘tish ta‘minlanmoqda;
- ta‘lim loyihalari, yangiliklari va texnologiyalarini, uning oilaviy, masofaviy va eksternat shakllarini qo‘llab-quvvatlash tizimi yaratilmoqda;
- oliy yoki o‘rtacha maxsus kasb-hunar ta‘lim muassasalariga qabul chog‘ida sinov vositasi sifatida foydalilaniladigan test metodi bilan respublika va mintaqalarda ta‘lim sifatini nazorat qilishning milliy tizimi joriy etilmoqda;
- turli ta‘lim muassasalarida o‘qitish, attestat va diplom olish huquqi berilmoqda, oliy ta‘lim talabalarining bilimlarini baholash reyting tizimida amalga oshirilmoqda;
- komp`yuter, virtual va axborot texnologiyalari rivojlantirilmoqda, umumiyligi va litsenziyalangan ta‘lim muassasalarining komponenti sifatida kasbiy ta‘limni axborotlashtirishning milliy standartlari o‘rnatalmoqda.

### **Ta‘lim va salomatlik**

Millatni o‘quv faoliyati doirasida sog‘lomlashtirish, sog‘lom turmush tarzi qadriyatlariga oshno etish ta‘lim sohasining ustivor yo‘nalishlari sanaladi. Bularni realizatsiyalashning asosiy yo‘nalishlari quyidagilar sanaladi:

- ta‘lim oluvchilarni sog‘lomlashtirishni ilmiy-tashkilish ta‘minlash va moddiy teznik bazasini yaratish;



- o‘quvchilar va talabalarning funktsional yosh xususiyatlariga o‘quv dasturlarining nomuvofiqliklarini va ta‘limning salbiy sharoitlarini bartaraf qilish;
- o‘quv yuklamasini normallashtirish – auditoriya va uy vazifalari bilan ortiqcha yuklashning oldini olish, sifatli ovqatlanishni ta'minlash, tibbiy-sanitariya normalariga rioya qilinishi ustidan nazorat;
- jismoniy imkoniyatlari cheklanganlar, rivojlanishida psixik nuqson va o‘ziga xosliklar bo‘lganlar uchun maqbul sharoit yaratish;
- ta‘lim oluvchilar salomatligi monitoringini, ta‘limning barcha bosqichlarida profilaktika ishlarini tibbiy ta'minlashni amalga oshirish;
- bolalar va o‘smlar salomatligini yaxshilashga qaratilgan innovatsion dasturlarni bajarish;
- psixiologik va valeologik xizmatlar, sog‘lomlashtirish markazlari va majmualari tizimini takomillashtirish;
- ta‘lim oluvchilarni sog‘lomlashtirish komponenti sifatida ularning jismoniy tarbiyasini tashkil qilishni yaxshilash;
- ta‘lim muhitida xavotir guruhlarini tibbiy qo‘llab-quvvatlash, antivital bog‘lanishlar va zararli odatlarning oldini olish;
- sinflar va mashg‘ulot uchun o‘quv joylarini jihozlash bo‘yicha sermahsul ergonomik va muhandislik yechimlarini ishlab chiqish va joriy qilish.

Ta‘lim faoliyatining maqsadi va mazmunini ilmiy asoslash ta‘lim va tarbiya jarayoni yuqori samaradorligining zaruriy sharti sifatida qaraladi. Ta‘lim sohasida ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilar sanaladi:

- ta‘lim muassasalari, jumladan ilmiy-tadqiqot institutlari, markazlar va fanlar akademiyalari bilan hamkorlikda, amalga oshiradigan fundamental tadqiqotlarni rivojlantirish;
- universitet respublika va mintaqaviy komplekslari tarkibida ilmiy-ma'rifiy markazlarni yaratish, ta‘limda noyob ilmiy-tadqiqot obyektlarini va innovatsion dasturlarni qo‘llab-quvvatlash;



- ta'limning ilmiy-taxnik infrastrukturasini takomillashtirish, ilmiy-tadqiqot ishi moddiy-texnik bazasidan ta'lim muassasalarining hamkorlikda foydalanishi;
- ijodiy ilmiy jamoalarni selektiv qo'llab-quvvatlash, OTM ilmiy tadqiqotlar sohasida raqobatni kuchaytirish vositasi sifatida mamlakat OTM da ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishning shartnomali tizimiga o'tish;
- ta'lim tizimining ilmiy-axborot ta'minoti jamg'armasini tashkil qilish: telekommunikatsiya tarmoqlarini, istiqbolli texnologiyalarni, elektron kutubxona kataloglarini, kompyuter tarmoqlari va serverlarini rivojlantirish;
- ta'lim sohasida ilmiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, pedagog va talabalarni ilmiy-tadqiqot ish amaliyotiga jalb qilish.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, hozirgi globallashuv zamonida ta'lim sohasiga bo'lgan e'tibor davlatimiz tamonidan asosiy masalalardan biri ekanligi yuqorida keltirilgan fikrlarimizda o'z isbotini tasdiqlaydi. Ta'lim doktrinasini elementlarini to'g'ri yo'lga qo'yish orqali biz ta'lim samaradorligi va sifatini oshirishga xizmat qilamiz. Shu boisdan maqolamizda doktrina elementlarini batafsil yoritishga harakat qildik.

### **Adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-sodn Qarori.–O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami: 07/18/3775/1313-sodn 06.06.2018 y.
2. Каримов И.А. Современные кадры – важный фактор прогресса. – Собр.соч. Т.6. – С. 245-250.
3. Закон Республики Узбекистан «Об образовании». 29.08.1997.
4. Закон Республики Узбекистан «О Национальной программе по подготовке кадров». – 29.08.1997.



5. Musaev O. Oliy o'quv yurti o'qituvchisining pedagogik qobiliyatlar kompleksini takomillashtirishning nazariy va amaliy asoslari. Monografiya. – Toshkent, “Tamaddun”, 2016.